

O‘ZBEKISTONDA PUL — KREDIT MEXANIZMI VA UNING DASTAKLARINI IQTISODIY FAOLLIKNI TA’MINLASHGA YO‘NALTIRISH

Tuychiyev Alisher Juraevich

Alfraganus University professori, i.f.d

Nazarov Dilshat Primqulovich

Alfraganus University magistranti

Annotatsiya

O‘zbekistonda pul-kredit mexanizmi iqtisodiy faollikni ta’minlashning asosiy omili bo‘lib, uning dastaklari moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan. Samarali pul-kredit siyosati iqtisodiyotning salohiyatidan keskin va davomiy og‘ishining oldini olish va salbiy ta’sirlarni yumshatish choralari ko‘rish imkoniyatlarini yaratadi. Shunga ko‘ra O‘zbekistonda pul — kredit siyosatini iqtisodiy faollikni ta’minlashga yo‘naltirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: pul-kredit mexanizmi, iqtisodiy faollik, moliyaviy barqarorlik, investitsiyalar, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy rivojlanish, ish o‘rinlari, pul-kredit siyosati, iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar.

Abstract

In Uzbekistan, the monetary and credit mechanism is the main factor in ensuring economic activity, and its levers play an important role in ensuring financial stability, supporting entrepreneurship and attracting investments. This mechanism is aimed at ensuring sustainable development of the economy and creating new jobs. An effective monetary and credit policy creates opportunities to prevent sharp and persistent deviations of the economy from its potential and take measures to mitigate negative impacts. Accordingly, conducting research on the orientation of monetary and credit policy in Uzbekistan to ensure economic activity is an important research direction.

Key words: monetary-credit mechanism, economic activity, financial stability, investments, entrepreneurship support, economic development, job creation, monetary policy, economic growth, innovations.

Аннотация

В Узбекистане денежно-кредитный механизм является основным фактором обеспечения экономической деятельности, а его рычаги важны для финансовой стабильности, поддержки предпринимательства и привлечения инвестиций. Этот механизм направлен на обеспечение устойчивого развития экономики и создание новых рабочих мест. Эффективная денежно-кредитная политика создает возможности для предотвращения резких и продолжительных отклонений от потенциала экономики и принятия мер по смягчению негативных последствий. Соответственно, проведение исследований по направлению денежно-кредитной политики для обеспечения

экономической деятельности в Узбекистане является важным направлением исследований.

Ключевые слова: денежно-кредитный механизм, экономическая активность, финансовая стабильность, инвестиции, поддержка предпринимательства, экономическое развитие, рабочие места, денежно-кредитная политика, экономический рост, инновации.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda pul-kredit siyosati va uning mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy faollikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ushbu siyosatning asosiy maqsadlaridan biridir. Pul-kredit mexanizmi iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish uchun iqtisodiy muhitga ta'sir o'tkazuvchi vositalar va dastaklar majmuidir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida pul-kredit siyosati iqtisodiyotning barqarorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va global iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, pandemiya davrida va global moliyaviy bozorlar notinch bo'lgan sharoitda, pul-kredit mexanizmlarini takomillashtirishning ahamiyati yana-da ortdi. Ushbu mexanizmlar nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy muammolarni hal qilish, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish uchun asosiy vositadir.

Pul-kredit mexanizmlarining samaradorligi ko'p jihatdan uning tarkibiy qismlariga, xususan, foiz stavkalari, pul massasi, valyuta kursi va kredit resurslaridan foydalanish tizimiga bog'liq. Bu mexanizmlar iqtisodiy faollikni oshirish bilan birga, ish o'rinlarini yaratish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida pul-kredit mexanizmi va uning dastaklarini iqtisodiy faollikni oshirishga yo'naltirish jarayonlari, amaliy natijalari va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba asosida mamlakatimiz sharoitiga mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Pul-kredit mexanizmi va uning iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi o'rni bo'yicha ilmiy izlanishlar iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti doirasida keng tadqiq qilingan. Ushbu mavzuda xalqaro va milliy tadqiqotchilar tomonidan qimmatli asarlar yozilgan bo'lib, ular pul-kredit siyosati vositalarini takomillashtirish va iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Jahon miqyosidagi tadqiqotchilar, xususan, Keynes, Friedman va Taylorning ilmiy ishlari pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy boshqaruvdagi rolini chuqur tahlil qilgan. Keynes o'zining "Umumiy nazariya" asarida pul-kredit mexanizmlarining iqtisodiy faollikka ta'sirini ta'kidlasa, Friedman ushbu mexanizmlarning uzoq muddatli inflyatsiya va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini ko'rsatgan. Taylor qoidasi esa foiz stavkalarini tartibga solish bo'yicha nazariy asoslarni ishlab chiqdi. Ushbu asarlar milliy darajada pul-kredit siyosatini ishlab chiqishda asosiy metodologik manba hisoblanadi.

O'zbekistonda pul-kredit siyosati va uning iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi o'rnini o'rganish bo'yicha iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. S. Qosimov, B. Mirzaev va Sh. To'rayev kabi mutaxassislar iqtisodiy islohotlar jarayonida Markaziy bankning roli, valyuta kursining barqarorligi va foiz siyosatining ahamiyati

bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlari respublikada pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari, jumladan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan nashr etilgan hisobotlar ham ushbu mavzuda muhim ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu hisobotlarda pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, barqarorlikni ta'minlash va islohotlarning natijadorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy faollikni oshirishda pul-kredit mexanizmi universal vosita bo'lib, har bir davlat o'z sharoitiga mos yondashuvni shakllantirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, o'zbek olimlari va xalqaro ekspertlarning tajribasini uyg'unlashtirish, innovatsion va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhimdir.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda pul-kredit mexanizmining iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi rolini o'rganish uchun iqtisodiy tahlil va ilmiy izlanish usullari qo'llanildi. Birlamchi manbalar sifatida respublika iqtisodiy ma'lumotlari, Markaziy bank hisobotlari, xalqaro moliya institutlari tavsiyalari va iqtisodiy tadqiqotlar o'rganildi.

Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy baholash va modellashtirish usullari qo'llanilib, pul-kredit siyosati vositalarining samaradorligi baholandi. Shuningdek, xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali mamlakatimiz sharoitiga mos strategiyalar ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Metodologiya sifatida iqtisodiy nazariyalarni amaliy ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirgan holda holat tahlili amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday faoliyat yoki jarayonni boshqarish va tartibga solishda ma'lum bir usul va vositalardan foydalanish lozimligi barchamizga ayon. Shu jumladan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bunda pul- kredit mexanizmini samarali qo'llashni yo'lga qo'yishni talab etadi. Aks holda maqsad tomon qilingan harakat samarasiz bo'ladi yoki murakkablashib ketadi. Tartibga solinmagan har qanday kreditlash faoliyati ortiqcha ovoragarchilik va sansolarlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun birinchi navbatda pul – kredit mexanizmini tartibga solishni asosiy usullarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizga ma'lumki quyidagilar kredit mexanizmini tartibga solishning asosiy usullari bo'lib hisoblanadi:

- Markaziy bankning kredit massalariga nisbatan olib boradigan siyosati
- Hukumatning aralash yoki davlat kredit massalari faoliyatiga qatnashuvi
- Ijroiya yoki qonun chiqaruvchi hokimiyatlarning kredit tizimi massalarining faoliyatini tartibga solishga doir qonuniy- me'yoriy tadbirlari

Respublika pul-kredit mexanizmini yuritilishida u orqali iqtisodiy faollikni ta'minlanishida Markaziy bank tomonida amalga oshirilayotgan pul- kredit siyosati asosiy o'rinda turadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy qoidasi shundan iboratki, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida turli xildagi moliyaviy-iqtisodiy siyosatlarni amalga oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatining asosiy ko'rinishlari monetar (pul-kredit) siyosat va fiskal sohalarida amalga oshiriladi. Pul-kredit (monetar) siyosati – bu narxlar barqarorligi, aholining to'la bandligi va ishlab chiqarishning real hajmi

o'sishini ta'minlash maqsadida muomaladagi pul miqdoriga ta'sir etuvchi davlatning iqtisodiy siyosatidir. Pul -kredit siyosatining iqtisodiy va tashkiliy asoslarini o'ziga xosligi uning obyektlari va subyektlarining xususiyatlari bilan belgilanadi. Pul-kredit siyosatining obyektlari pul bozoridagi talab va taklifdir. Pul-kredit siyosatining subyektlari deganda, eng avvalo Markaziy bank va u bilan o'zaro harakat qiluvchi, moliyaviy tizimning ishlashida qatnashuvchi banklar va boshqa pul-kredit boshqaruvi organlari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 151-moddasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakatda banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi, bank va to'lov tizimlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi belgilab berilgan.¹

Markaziy bank davlat organi bo'lib, o'z vakolatlari doirasida yagona davlat pul-kredit mexanizmining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi, qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishdagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega, davlat tomonidan valyutani tartibga soluvchi va nazoratini olib boruvchi organ hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va fiskal agenti sifatida banklar va boshqa kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi.

Respublikada pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi.

Bevosita vositalar — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxлари (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit ko'rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxлари va hajmi nazorat qilinadi. Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslariga bozor mexanizmlari (majburiy zaxira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta'sir etiladi.

Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o'sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo'lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki, aksincha, tushirishga xizmat qiladi.

Shu narsa e'tiborliki, hozirgacha pul-kredit vositalarining turkumlanishi borasida yagona bir yo'nalish mavjud emas. Lekin, shu bilan birga, ko'pchilik olimlar quyida keltirilgan vositalarni pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari sifatida qayd etiladi:

- 1) Hisob stavkalari siyosati;
- 2) Majburiy rezervlar siyosati;
- 3) Ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati;
- 4) Valyuta siyosati.

Mazkur usullar jahon banklari amaliyotida tan olingan asosiy usullar hisoblanib, ularning qo'llanishi har bir mamlakatda turlicha bo'lishi mumkin.

Respublikamizda pul- kredit mexanizmini takomillashtirishda Markaziy bank o'z oldida turgan maqsad va vazifalarga hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning belgilangan darajalariga erishish uchun pul-kredit sohasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/6445145>

1. Markaziy bank pul-kredit siyosatini fiskal siyosat bilan muvofiqlashtirgan holda olib boradi.

2. Markaziy bank pul agregatlari dinamikasini joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda valyuta kursi bo'yicha ko'zda tutilgan ko'rsatkichlarga mos ravishda tartibga solib turadi.

3. Pul-kredit siyosatining tezkor ko'rsatkichlari sifatida zaxira pullar, Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga beriladigan kreditlar belgilanadi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha choraklik va oylik chegaraviy mo'ljallar o'rnatiladi va ularning bajarilishi doimiy nazoratga olinadi.

4. Markaziy bankning qayta moliyalash mexanizmi ishlab chiqarish tarmoqlarining kredit resurslariga bo'lgan talabini qondirishga va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiya dasturlarini ustuvor ravishda moliyalashga xizmat qiladi.

5. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi pul bozoridagi talab va taklifdan hamda joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

6. Taklif etilayotgan pul hajmini boshqarish maqsadida bank tizimining likvidligi va pul bazasining shakllanishi ustidan o'rnatilgan monitoring ishlarini olib boradi.

7. Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumati qarorlari asosida bank tizimini tubdan mustahkamlashga, ularning kredit berish imkoniyatlarini va ustav kapitalini bo'sh mablag'lar jalb qilish hisobidan kengaytirishga, banklar investitsiya jarayonining asosiy bo'g'iniga, korxonalar, xususan xususiy tadbirkorlar, kichik biznes korxonalarining chinakam hamkoriga aylanishiga, xorijiy banklar bilan hamkorlikni yanada kengaytirilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

8. Markaziy bank pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida ochiq bozordagi operatsiyalarni, jumladan ikkilamchi bozordagi operatsiyalarni yanada rivojlantiradi. Shuningdek, aholi bo'sh mablag'larini tijorat banklari orqali moliya bozoriga jalb etish hamda tijorat banklariga bo'lgan ishonchni oshirish choralari ko'radi.

Ta'kidlash joizki, faqatgina pul-kredit siyosatida amalga oshiriladigan islohotlar iqtisodiy o'sishning asosiy manbai bo'la olmaydi. Pul-kredit choralari asosan qisqa muddatli ahamiyat kasb etib, iqtisodiyotdagi yalpi talab va taklif hajmlaridagi qisqa muddatli tebranishlarni yumshatish va ishlab chiqarish tafovutlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sishning fundamental asoslarini mustahkamlash, ishlab chiqarish omillari unumdorligini oshirish, energiya iste'molini pasaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash hamda uning tashqi sharoitlarga bog'liqligini kamaytirish va raqobat muhitini rivojlantirish vazifalari, o'z navbatida, tizimli tarkibiy islohotlarni va samarali soliq-byudjet siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari Markaziy bank uchun o'rta muddatli istiqbolida dasturiy hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat orqali Markaziy bank keng jamoatchilikka pul-kredit sohasidagi o'z maqsadlarini e'lon qiladi.

Asosiy yo'nalishlarda pul-kredit siyosati qaysi tamoyillar va usullar orqali amalga oshirilishi yoritiladi, iqtisodiy rivojlanishning ichki va tashqi sharoitlari hamda inflyatsion jarayonlarga baho berilib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili va prognozlar keltiriladi.

O'rta muddatli istiqbolida pul-kredit siyosatini yuritishda inflyatsiya darajasini pasaytirib borish bilan birga inflyatsion targetlash rejimiga o'tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish Markaziy bankning diqqat-e'tiborida bo'ladi. SHu nuqtai nazardan,

Markaziy bank pul-kredit siyosati o'rta muddatli istiqbolda "o'tish davridagi" pul-kredit siyosati rejimida amalga oshirib boriladi

Kelgusi davrda pul-kredit siyosati oraliq va operatsion maqsadlarini belgilashda istiqbolga yo'naltirilgan (forward looking approach) tamoyillarga asoslaniladi. Pul-kredit siyosati instrumentlari faqatgina bozor mexanizmlari asosida takomillashtirilib, ularni qo'llashda moliyaviy aktivlarning narxiga (price based approach) ta'sir etish usullaridan foydalaniladi.

Pul-kredit siyosati mantiqan yangi tamoyillar asosida yuritiladigan bo'ldi. Xususan, mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi Markaziy bank faoliyatining ustuvor maqsadi sifatida belgilandi. Valyuta siyosati va pul muomalasini tartibga solish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, yangi voqelikda makroiqtisodiy sohada shakllanayotgan shart-sharoitlar pul-kredit siyosatida ham muhim o'zgarishlarning amalga oshirilishiga asos bo'ldi. O'rta muddatli istiqbolda inflyatsiyaning past va barqaror darajasi ta'minlanishi makroiqtisodiy mutanosiblikning muhim omili bo'lib, mamlakatda ijtimoiy holatni yaxshilash, investitsion faollikni rivojlantirish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish uchun zaruriy sharoit yaratadi. Ichki narxlar barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz davomiy pul-kredit siyosatining yuritilishi aholi va biznes vakillari daromadlari xarid qobiliyatini saqlab qolish, ularning ishlab chiqarish, investitsiya, jamg'arish va iste'mol borasida qarorlar qabul qilishlari uchun qulay iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki respublikamiz pul –mexanizmi samarali olib borilmoqda, jumladan Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati buning yaqqol dalilidir. Lekin respublikamizda yanada iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish xalqaro kredit liniyalaridan foydalanishni va xorijning kredit tizimi tajribasini o'rganishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. Macmillan.
2. Friedman, M. (1968). *The Role of Monetary Policy*. American Economic Review, 58(1), 1-17.
3. Taylor, J. B. (1993). *Discretion versus Policy Rules in Practice*. Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy, 39, 195-214.
4. Qosimov, S. (2018). *Pul-kredit siyosatining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. Mirzaev, B. (2020). *O'zbekiston iqtisodiyoti va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. To'rayev, Sh. (2019). *Markaziy bankning foiz siyosati: Tahlil va tavsiyalar*. Toshkent: Iqtisodiyot instituti nashriyoti.
7. International Monetary Fund (IMF). (2020). *Monetary Policy and Financial Stability in Emerging Markets*. IMF Working Papers.
8. World Bank. (2021). *Fostering Financial Resilience in Developing Economies*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
9. Asian Development Bank (ADB). (2020). *Economic Integration and Monetary Policy in Asia*. Manila: ADB Publications.

10. Mishkin, F. S. (2007). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education.